

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA BADIY KOMMUNIKATSIYA**Matyakupov Sa'dulla**

Nukus davlat pedagogika instituti.

Filologiya fanlari doktori, dotsent. sadulla.yoqub@gmail.com

Annotasiya. Maqolada o'zbek she'riyatida ruhiy kechinma va badiiy ifoda masalasi tadqiq etilgan. Shoir mahorati, dialog va monoglardan foydalanishi xususida atroflicha mulohaza bildirilgan. Mavzu M.Yusuf ijodi misolida o'rganilib nazariy va badiiy tahlil natijalari umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar. Dialog, monolog, individuallik, badiiy ifoda, obrazlilik, badiiy tafakkur, falsafiy talqin.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ КОММУНИКАЦИЯ В ПОЭЗИИ**МУХАММАДА ЮСУФА**

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема духовного мира и художественного описания в узбекской поэзии. Досконально было обсуждено мастерство поэта, способность использовать диалогическую и монологическую речь в работах. Тема была конкретизирована с примерами из произведений М.Юсуфа и обобщены теоретические и художественные анализы.

Ключевые слова. Диалог, монолог, индивидуальность, художественная интерпретация, образность, художественная идея, философское толкование.

ARTISTIC COMMUNICATION IN THE POETRY OF MUHAMMAD YUSUF

Annotation. The presented article deals with the ways of giving inner world of people and literary descriptions in the Uzbek poetry. The article analyses the skillfulness of poets, their ability to use dialogues and monologues. The topic was enriched with the examples from Muhammad Yusuf's creations and there also concluded theoretical and literary analysis.

Keywords. Dialogue, monologue, individuality, literary interpretation, literary, idea, philosophic interpretation.

Kirish. Ijodkor kechinmalarining namoyon bo'lishi she'riyatda ancha murakkab kechadi. Negaki, asosan oniy kechinma asosiga quriladigan lirik ifodada tahlil va talqin o'zaro uyg'unlashadi. Bu narsa badiiy tafakkurning kelgusi taraqqiyot tamoyillarini, realistik tasvir madaniyati imkoniyatlarini, janrlar va ijodiy uslublar rang-barangligini asoslaydi. O'zbek adabiyoti tarixining barcha bosqichida she'riyat yetakchi janr bo'lib kelgan. Bugun ham she'riyatda davrning muhim masalalari rang-barang tasvirlar orqali o'zining badiiy in'ikosini topmoqda. Bu borada shoirlar adabiyotimizdagi mavjud tajribalardan foydalangan holda ularga yangi tamoyillarni ham olib kirmoqda. Ta'kidlash kerakki, she'riyatda dialoglar qo'llash o'zbek

adabiyoti tarixidagi o'ziga xos an'analardan biridir. Xususan, mumtoz adabiyotimizda A.Navoiy, Furqat, zamonaviy adabiyotimizda E.Vohidov, A.Oripov, M.Yusuf kabi shoirlar ijodida ushbu an'ananing samarali davomini kuzatish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Buyuk faylasuf Aristotel "Ritorika" asarida notiq va tinglovchi munosabatlari yuzasidan "Dialektika kabi ritorika (so'z san'ati) ham ayrim sohalar uchun emas, balki barcha sohalarga aloqador va foydalidir. Ritorika ilmining ishi ayrim odamni biror fikrga ishontirish emas, balki barcha odamlarni (foydali va to'g'ri) fikrga qanday ishontirishning usullari, qoidalarini o'rgatadi... Ritorika – barcha notiqlar uchun (doimo inglovchilarga, o'quvchilarga, talabalarga va'z aytuvchi o'qituvchilar uchun) juda foydalidir" [1. 221] – deya ta'kidlaydi. Aristotelning badiiy nutq haqidagi umumiy qarashlarining o'ziyoq dialogik mohiyat kasb etadi. Garchand, u keyingi davr lingvopoetiklari singari badiiy nutqning ichki va tashqi dialog ko'rinishlarini alohida ajratmagan bo'lsa-da, uning muallif "men"i va o'quvchi, tinglovchi "men"i – "men" va "boshqa" – o'rtasidagi retseptiv munosabatni tashkillantirishda muhim ahamiyatga ega ekaniga urg'u bergan. Bunday qarashlar V.Jirmunskiy tadqiqotlarida bir oz boshqacharoq shaklda bo'lsa ham deyarli takrorlangan. U o'zining Aristotelning simmetriya haqidagi fikriga monand: "So'z san'atida bo'laklar jamlanib, obrazlilik hosil qiladi" [3. 21] – deya munosabat bildiradi. Olimning fikriga ko'ra "Ritorika tili poeziya tiliga yaqin. Amaliy va ilmiy til esa poeziya tilidan uzoq. Amaliy va ilmiy til amorflashgan, ya'ni bir ma'noni ifodalovchi bo'ladi. Unga hayotiy, ilmiy mantiqiylik xosdir" [3. 24]. Diqqat qaratish joizki, V.Jirmunskiyning ritorika bilan bog'liq fikrlari Aristoteldan ko'chgan an'ana bo'lishiga qaramasdan, uning mantiq masalasidagi xulosasi Aristotel badiiy mantiqidan farq qiladi. Aristoteldagi singari badiiy yoki umumiy mantiqni emas, to'g'ridan to'g'ri ilmiy yoki hayotiy mantiqni bildiradi.

O'zbek adabiyotshunosligida she'riyatda dialog va uning talqin xususiyatlari borasida hozirga qadar yirik ilmiy tadqiqot bajarilmagan. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov tomonidan A.Navoiy lirikasida g'azallar-muloqot shakllari bo'yicha e'lon qilingan maqolada janr tabiati hamda muloqotning vujudga kelish omillari ilmiy tahlil qilinadi [9. 12-16]. Shuningdek, professor H.Boltaboyevning "XX asr adabiyotshunosligida dialogizm va Mixail Baxtinning adabiy-estetik ta'limoti" [2. 8-14], A.Qozixojayevning "G'azalning serovoz olami" [10. 4.] maqolalarida dialogning tarxiiy tadriji, xususan, nazmda tutgan o'rni ilmiy-nazariy asoslanadi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotimizga o'ziga xos ohang, yangi badiiy ifodalar olib kira olgan shoirlardan biri Muhammad Yusufdir. U o'zining dastlabki she'rlaridanoq xalq dardini o'z dardi sifatida ifoda qila boshladi. Uning har bir she'rida samimiylik, hech bir shoirga o'xshamaydigan badiiy ifoda ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga shoirning aksariyat she'rlarida chuqur falsafiy-psixologik talqin yetakchilik qiladi. M.Yusuf she'rlarining yana bir o'ziga xos xususiyati shuki, shoir

o‘zi bayon etmoqchi bo‘lgan fikrni ifodalashda dialoglardan mohirona foydalanadi. Uning “Ona meni nega...” she‘ri ushbu fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbu she‘r atigi sakkiz satrdan iborat bo‘lib, har ikki misradan bir savol takrorlanadi.

- Ona meni nega tug‘ding?
- Yurting uchun.
- Ona meni nega tug‘ding?
- Baxting uchun...
- Ona meni nega tug‘ding?
- Zoriqqandan.
- Ona meni nega tug‘ding?
- Zerikkandan... [5.154].

Ahamiyat bersak, she‘rda berilayotgan javoblarda teran falsafiy mushohadakorlik mavjud. Bu esa she‘rda berilgan javoblarda o‘z aksini topadi. Bir qarasa ona-bolaning oddiygina savol-javobidek ko‘ringan she‘r shoirning yuksak falsafiy-mantiqiy tafakkuri orqali badiiy kashfiyotga aylangan. Diqqat qilinsa, berilgan javoblarda orqaga chekinish seziladi. Berilgan savol esa shoir qalbini bir umr qiynab kelgan eng katta muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jumboqlarga javob topish uchun, avvalo, she‘rdagi lirik kechinmaning ifoda qilinishi masalasiga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Muhammad Yusufning ushbu she‘ri istiqloldan oldingi yillarda yozilgan. To‘g‘ri, she‘r shunchaki bir o‘tirishda yaratilgan bo‘lishi mumkin, lekin uning vujudga kelishiga asos bo‘lgan savol shoirni butun umr o‘ylantirib kelgan. Zero, adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov ta‘kidlaganidek, “Lirik kechinma ba‘zan oniy ruhiy holat sifatida kechib, estetik qimmat kasb etuvchi mahsul beradi va yo‘qoladi. Ba‘zan esa u muayyan tugallikka, estetik qimmat kasb etuvchi asar sifatida shakllana olmay, ijodkor qalbida, shuurida uzoq vaqtlar saqlanib yuradi. Mana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, lirik kechinma voqe bo‘lishi va tugal estetik qimmatga ega bo‘lgan asar sifatida shakllanishiga qarab ikki xilga bo‘linadi: 1. Oniy lirik kechinma. 2. Xotiraviy lirik kechinma” [8.185]. Shu ma‘noda aytish mumkinki, she‘rdagi har bir band orasida ma‘lum bir vaqt, hayotiy saboq, aqliy idrok mujassamlashgan.

She‘rning mazmun-mohiyatiga chuqurroq nigoh tashlasak, takrorlanayotgan bir xil savolga berilayotgan har xil javoblar orqali shoir mavjud tuzum va unga nisbatan bo‘lgan e‘tiqodidan qaytayotgan qahramon – Ona siymosini gavdalantiradi. Chunki, asarda lirik qahramon mavjud voqelikdan tom ma‘nodagi “Yurt uchun” fidokor insonlarni, “Baxt uchun” kurash samarasini ko‘ra olmaydi. Ta‘bir joiz bo‘lsa bunday ulug‘ tuyg‘ularni tasavvur ham qila olmaydi. O‘zidan nasl-nasab qoldirish, avlodini davom ettirish maqsadida “Zoriqqandan” farzandini dunyoga keltirgan Onaning bu javobidan lirik qahramon yanada hayratga tushadi. Chunki, kelajak avlodning taqdiri, istiqboli haqida qayg‘urmayotgan muayyan muhit g‘oyalarini idrok etib ulgurgan

farzand endi tamomila norozi kayfiyatda yana shu savol (“Ona meni nega tug‘ding?”)ni takrorlaydi. Farzand qalbini aniq his qilib turgan Ona esa bu savolga ortiq bardosh berolmasligi sababli “Zerikkandan” – deya javob berishga majbur bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, tahlil qilingan she‘rda ifodalangan badiiy-falsafiy g‘oyalar tizimi o‘ziga xos ahamiyatga molik. Zero, ushbu mo‘jazzgina she‘rdan biz o‘tgan davrning soxta g‘oyalaridan aldangan insonlar qismati hamda bu g‘oyalarning bugungi kundagi qadr-qimmati va uni ardoqlash, qadriga yetish borasida o‘zimizga tegishli xulosalar chiqaramiz. Demak, adabiy asarda qahramon yaratish ijodkor estetik idealining ma‘lum badiiy qonuniyatlar asosida tasvirlanib, o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni o‘ziga xos uslub va mahorat bilan aks ettirishidir. Xususan, she‘riyatda lirik qahramon tasviri orqali shoirning qalb haqiqati, o‘zi yashagan davrga xos muhim masalalar har-xil usul va tasvirlar orqali badiiy talqin etiladi. Shu ma‘noda, har qanday badiiy asar qahramoni faoliyatidan kitobxon o‘ziing ma‘lum bir fazilat yoki illatlarini anglashi, muayyan davr g‘oyalariga javob topa olishi lozim, shundagina u o‘sha qahramon taqdiri va talqiniga befarq qaray olmaydi.

M.Yusufning xalqimiz boshidan kechirgan qatog‘on davri voqealarini aks ettiruvchi “Qora quyosh” dostonida ham ko‘plab dialoglarni uchratish mumkin. Ularda shoir mavjud davr psixologiyasini, muayyan zamondagi hayot haqiqatlarini yuksak badiiy mahorat bilan talqin qiladi.

- Yolg‘on nima, ey odam?
- Yolg‘on – o‘t o‘smas dala.
- Haq nimadir, ey odam?
- Haqiqat yetim bola... [5.209].

Ushbu satrlarda shoir qatog‘on davrlarida inson erki, huquqlari naqadar toptalganligiga shunday chiroyli badiiy ifoda topganki, go‘yo uni boshqacha so‘zlar bilan izohlash mumkin emasdek tuyuladi. “Qora quyosh” dostonining “37-yil yig‘isi” qismida shunday satrlarni uchratamiz:

- Qayg‘u nima, ey odam?
- Qayg‘u ham shirin armon.
- Baxt nimadir, ey odam?
- Baxt bir burda qora non [5.225].

Ushbu parchada ham shoirning insoniyatga nisbatan aytayotgan ko‘ngil nidosini aniq his qilamiz. Ularda muallifning qalb kechinmalari, badiiy tafakkuri orqali qayg‘u, baxt kabi tushunchalarga nisbatan falsafiy-mantiqiy munosabat o‘zgacha yo‘sinda ifodalanadi. M.Yusuf she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildirar ekan, Q.Yo‘ldoshev shunday yozadi: “Olovli she‘riy nafas, kutilmagan tashbehlar, o‘tkir va serma‘no timsollar, mayin ohanglar shoir bitiklariga xos xususiyatlardir. M.Yusuf ijodini o‘rganish o‘zbekning ko‘nglini yaxshiroq bilish

imkonini beradi. Shoirning she'rlari turli yo'nalishda, ular muallifning turfa kayfiyatini ifoda etgan. Lekin Muhammad Yusufning butun ijodi uchun mehrga tashnalik, insonni ayashga intilish yetakchi belgi edi, desak adashmagan bo'lamiz" [4.290].

Ko'rinadiki, M.Yusuf lirikasida dialoglar orqali davr va qahramon xarakteri, inson taqdiri talqini masalasi chuqur badiiy tahlil qilinadi. Shoir she'rlaridagi dialoglarda savollarga berilgan javoblar, ulardagi takroriy usul orqali o'zining ruhiy kechinmalari, hayotni va insonni tushunish hamda tushuntirishida realistik tasvir imkoniyatidan mohirona foydalanadi. Ayni paytda ularda ijodkor shaxsiyati ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, dialog og'zaki va yozma nutq birikuvidan hosil bo'ladigan shakl sifatida so'zlovchi hamda tinglovchi munosabatlarining uzluksizligini ta'minlaydi. Unda sintaktik tanlov asosida qurilgan bayon uslubiy vazifadoshligi in'ikos topgan holda adabiy til uch qatlami – kitobiy uslub, umumxalq so'zlashuv uslubi va lug'aviy birliklar turkumi uyg'unlashadi. Shuning uchun ham unda ruhiy va ijtimoiy bo'yoqdorlik bir-birini to'ldiradi. Agar dramatik turga mansub asarlarda monolog ham dialoglashgan mohiyatga bo'ysundirilsa, nazmda muloqot shakllari monologik ifodaga singib ketadi. Shu boisdan, she'riyatda ushbu holatni maxsus usul sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Aynan bir tomonlama muloqot ustuvorligi shunday xulosa chiqarishga turtki beradi. Negaki, lirika «men» ruhiy kechinmalari negizida vujudga keladi. Unda shaxs maqomi borliqning umumlashgan, mavhumlashgan hamda uyushgan mohiyatini aks ettiradi.

Monologik tafakkurga asoslangan she'rda so'z, ma'no, ohang va marom omuxtalashadi. Uning qo'llanilish usuli badiiy samaradorlikni hosil qiluvchi yetakchi unsur, unda shakl takomillashuvi ma'no-mantiqini yangilaydi va uslub barqarorlashuviga sharoit tug'diradi. Aynan, ifoda badiiy imkoniyatlari cheksizligi tasavvur miqyoslarini o'quvchi ongiga yaxlit holda ko'chirishni taqozo etadi. Bu borada M.Yusufning "Tilak" she'rida shunday satrlarni uchratamiz:

Har kimning ham sochlariga oq tushsin,
Ajin tushsin yuzlariga, dog' tushsin.
Har kimning ham quvvat ketib belidan,
Qo'llariga aso – bir tayoq tushsin [6.26].

E'tibor qilsak, mazkur she'rda har bir insonga keksalik baxtining nasib etishini tilab bildirilayotgan samimiy tilak shunday ifodalanganki, unda tasvirlanayotgan sochlardagi "oq", yuzdagi "ajin" va "dog'", qo'ldagi "tayoq" insonni eng mukarram qilib ko'rsatuvchi go'zallik sifatida talqin etiladi. Bu esa shoirning yuksak badiiy tafakkur va salohiyatini namoyon etadi.

Lirikada so'zga yuklatilgan ritorik munosabat tadqiq sahniga chiqqan holda matndagi nozik tuyg'u muallif shaxsiyati va she'r ruhiyatini bir-biriga

muqobillashtiradi. Aynan badiiy nutqda tasavvur va g'oya raqobatga kirishuvini inobatga olsak, mazkur masala mohiyati yanada oydinlashadi. Poetik tushunchada ma'no tarmoqlanishi tahlil malakasi ustuvorlashuviga zamin hozirlaydi. Ushbu jarayonda ijodiy hamkorlik qadriyat, an'ana va madaniyat jipslashib, adabiy talqin ijtimoiy voqelik hamda badiiy shartlilikni vujudga keltiradi. Matndagi qiymat, nuqtai nazar va idrok she'riy yo'sin tabiatini belgilaydi. Lug'aviy birlik o'rnini egallaydigan matn esa ritorik munosabat yaratadi. Unda kuzatish va mushohada qorishgan holda ijodkorning dialoglashgan tuyg'ularini yuzaga chiqaradi va bundan poetik idrok shakllanadi.

Men siz aytgandayin hammani sevdim,
Hammaga ishondim, mana oqibat:
O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,
Kun bo'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat [5. 57].

Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Onamga xat" she'ri olti banddan iborat. Unda cheksiz sog'inch yuragini o'rtagan farzand ona siymosi bilan ritorik munosabatga kirishadi. "Tunlari charog'on shunday shaharda" ham yolg'iz lirik subyekt hayot va xayol ziddiyatidan iztirob chekadi. Orzularga hamroh ko'ngil izhori dag'al voqelik silsilasida sinadi. Ruhiiy holatning aniq manzarasi hamda ifoda mantig'i soddaligi she'rga samimiyat baxsh etadi. Muallif dil rozini oshkor etish yordamida kitobxon qalbida hamdardlik uyg'otadi. Shuning uchun ham aldov va riyodan holi satrlar o'quvchini ishontirgan holda murojaat zamiriga singib ketgan savol kitobxonni ham o'ylarga toldiradi. Binobarin, "ichki dunyosi boy ko'ngil kishilariga yashash hamisha qiyin kechadi. Sababi bunday shaxs voqelikning hech qanday ishtirokisiz ham doim qarama-qarshi ikki kuch: ruh va tana o'rtasidagi kurash og'ushida kun kechirishga mahkum. Ruhiiyat, ko'ngil odamni yuksaklarga chorlasa, tana uni yerga tortib, nafsning istaklarini qondirishga undaydi" [4. 306].

Chinakam tuyg'udan o'sib chiqqan, ezgulik va go'zallikka qoniq misralar har qanday g'araz hamda manfaatdan yuksak turadigan nozik sezimni uyg'otadi. Ta'kidlash kerakki, she'r ritorikasi hayotiy vaziyatni oydinlashtiradi, muloqot ishtirokchilari nuqtai nazarini keskinlashtiradi, badiiy axborotning yo'naltirilganlik darajasini tavsiflaydi, tahlil va talqin o'rin almashinuv jarayonini markaziy nuqtaga olib chiqadi. Tasvir va ifoda esa bir-birini to'ldiruvchi omilga o'zgaradi.

Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon,
Yulduzlar qiqirlab kular oq badan:
Men - zangor yaylovda olis, bepoyon,
Uyuridan ajrab qolgan qulunman... [5. 57].

Lirik qahramon tomonidan g'oyat o'ziga xos sharhlangan ruhiy holat muallif pozitsiyasini belgilab beradi. Maqsad va vazifa nisbati esa tasvirdagi manzaradan harakatga o'tishga zamin hozirlaydi. She'r mohiyatidan anglashiladigan dard

(“Boshimdan o‘tgani ko‘kka ham ayon”) lirik qahramon (“Uyuridan ajrab qolgan qulunday”) ahvoliga sabab bo‘ladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ichki nutq qo‘llangan tashbehdan tugallanmagan ifoda munosabatini hosil qilishga yo‘naltiriladi. Aniqrog‘i, matn darajasidan muallif tanloviga o‘tish monologik tafakkur mutanosibligini vujudga keltiradi. Dialog talqinida “san’atkorning san’ati shundaki, u har bir so‘z, holatdagi ma’nolarni bus-butun qamrab olishga so‘zning ich-ichiga, moyasiga kirib borishga intiladi” [7. 44]. Bu vaziyatda so‘z ruhiy holat va poetik g‘oya bilan aloqaga kirishadi. She’rda muallif tinglovchi sifatida parda ortidagi ona timsolini tanlab oladi.

Xulosa va takliflar. She’riyat muttasil rivishda inson idrok tuyg‘usini tahlil qilishga intiladi. Chunki ushbu holat sabab va oqibat o‘rtasida munosabat hosil qiladi, his-tuyg‘uni ma’no tarangligiga yo‘naltiradi. Unda tasvir ruhiyati teranligi, bilish va anglash darajasi tadriji, falsafiy fikr yangilanishi his qilinadi. Shakl va ifoda yurishi davomiyligi, g‘oya estetik quvvat-hofizasini belgilash ehtiyoji, tushunchada tashbeh o‘yini she’riy nutqda o‘ziga xoslik kasb etadi. Binobarin, tuyg‘u va ong ziddiyati matn yaxlitligini ta’minlaydigan tayanch markaz, izchil mushohada miqyosini kengaytiradigan tuyg‘u aniqlikdan mavhumlik paydo etadi. Aslida oniy kechinmani ilg‘ash murakkab jarayon hisoblanadi. Umuman, M.Yusuf she’riyatida qalamga olingan har qanday mavzu qanday shaklda namoyon bo‘lmasin o‘zining betakror ifodasini topadi. Shoir she’rlarida badiiy tasvirlar shu qadar nozik ifodalanadiki, ularda hech qanday yasama tuyg‘ular, balandparvoz so‘zlarni uchratmaymiz.

АДАБИЁТЛАР:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
2. Boltaboev H. XX asr adabiyotshunosligida dialogizm va Mixail Baxtinning adabiy-estetik ta’limoti // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2016. – № 4.
3. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977.
4. Yo‘ldoshev Q. Hamisha navqiron she’riyat // Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007.
6. Muhammad Yusuf saboqlari (To‘plovchi va mallif Shukur Qurbon). – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2012.
7. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.
8. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: 2004.
9. Sarimsoqov B. Alisher Navoiy lirikasida g‘azal-muloqot shakllari // O‘zbek tili va adabiyoti, – Toshkent, 2001. – № 4.
10. Qozixo‘jaev A. G‘azalning serovoz olami // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, – Toshkent, 2009. – № 49.